

O'SMIR YOSHDAGI BOLALAR GARDEROBIDAGI KIYIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI

Umarova Nigora Maxammadaliyevna
Farg'ona viloyati Oltiariq tuman 2-son kasb hunar maktab
Tikuvchilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o 'smir yoshdagi bolalar davriga xos kiyinish madaniyati va ularning turlari, yoshlar garderobiga qaysi kiyim turlari kirishi va ularning qanday jihatlariga e'tibor berish kerakligi, o 'smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo 'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *O'smirlar garderobi, zamonaviy liboslar, transformatsiya, milliy matolar, matolar kombinatsiyasi.*

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodning rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, bolaning о^Л rivojlanishiga, to'g'ri tarbiya va ta'lim olishiga katta imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan havfsiz mahsulotlar bilan bolalarni ta'minlash muammosi davlatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki yosh avlodning sog'lig'i va kelajakdagi muvaffiqiyati bu vazifa yechimining natijasiga bog'liqdir. Shu bilan birga o'smir yoshdagi bolalar kiyimining o'ziga xosligi ham muhim rol o'yndaydi. Bu yoshda bolalar kiyimiga qo'yiladigan talablar bir munkha o'ziga xos hususiyatlari bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ilmiy bilish usullarining mantiqiylik, izchillik va ob'ektivlikdan keng foydalanilgan. "Libos dizayni" yo'nalishida bolalar kiyimlarining ahamiyati va uni zamonaviy moda va liboslar dizayni sanoatidagi istiqbollari haqida tahlil o'tkazildi. Maqolani yoritish jarayonida F.Z. Ataxanova, A.S.Saidiganieva, S.A.Karimova, G.E. Umarov, N.A.Abduqodirovalarning "O'zbekistonda badiiy dizayn ta'limi: kelib chiqishi, xususiyatlari, muammolari" sarlavhali maqolasida yoritilgan uslubiy ko'rsatmalari va S.A. Yunusxo'jaevaning "Yosh rassomga ta'lim berishda samarali usullardan foydalanish iqtidorli yoshlarning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishining garovidir" nomli maqolasidagi fikrlar shuningdek, G.K. Xasanbayevaning "Yoshlar uchun kiyim-kechak dizayni spetsifikasi" kitobidagi ma'lumotlar o'smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini taxlil etishda asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda yangi materiallar paydo bo'lishiga yuzaga keladigan bolalar kiyim-kechagini loyihalash katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. O'smir bolalar gavdasining

shakli, yangidan shakkantirish, standart usullari bo'yicha, ayni paytda juda mashhur ochiq uslub va trikotaj ishlab chiqarishda katta ulushini qo'shmoqda.

Shu bilan bir qatorda o'smir yoshdagagi bolalar uchun mo'ljallangan kiyimlarga ko'pgina talablar qo'yiladi. Birinchi navbatda ular: qulay, sifatli va yorqin bo'lishi lozim va albatta tabiiy tolali matolardan tayyorlanishi maqsadga muvoffiqdir.

Sintetik kiyim turlaridan ajratilgan mikroplastikani yuvishda atmosferada va tuproqda to'planadi va sayyoramizni ifloslantiradi. Har yili dunyoda 150 milliard kiyim ishlab chiqariladi, shulardan faqat yarmi sotib olinadi. Haddan tashqari ko'p miqdordagi ishlab chiqarish tufayli sotilmagan tovarlar hajmi oshib boradi, sotilmagan tovarlar yo'q qilinadi yoki chiqindilarga tashlanadi [4].

Rassom materialni ongli ravishda tanlaydi, uning xususiyatlarini belgilaydi va sharhlaydi, mahsulotni umumiy shaklga, ya'ni badiiy va kompozitsion birbutunlikga yig'ish uchun muhandislik va texnologiya ishlarini bajaradi [5].

Odatda, barcha ko'rsatkichlarga mos tushuvchi kiyimlarni tanlash murakkab jarayon hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham yoshlarbop zamonaviy liboslarni tanlashda uzoq vaqt va e'tibor talab qilinadi. Yoshlarbop zamonaviy liboslar nafaqat, kiyim, balki jamiyatda o'z o'rnini, o'z hohish-istik va qiziqishlarini ko'rsata olish ham demakdir. Buning uchun esa o'smir yoshlar uchun kiyimlarni aniq va to'g'ri tanlay olish kerak bo'ladi. Aynan, o'smirlar yosh davrida biror bir aniq guruhga xos bo'lishni hohlaydilar, ya'ni ma'lum bir uslub asosida kiyinishni istaydilar. Masalan, ijod bilan qiziquvchi yosh o'smirlar yorqin, to'p yozuvli kiyimlarni ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari, bunday kiyimlar juda yorqin tusda yaltirovchi ranglarga ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda o'smir bolalar atrofdagilarga ishga bo'lган nostandard munosabatini va xarakterining yangi ko'rinishlarini ^'z-'z qiladilar. O'smirlar uchun zamonaviy liboslardan tashkil topgan garderob quyidagilarni o'z ichiga oladi: oddiy maykalar bilan birga rasmlı bo'lган maykalar, kalta va uzun yengli rasmlı yoki yo'l-yo'l ko'ylaklar. Shuningdek, shimplar, jinsi, shorti, bridjilar va h.k. O'smirlar garderobida ko'pgina zamonaviy liboslarni ham uchratish mumkin. O'smirlar odatda, o'z garderobini ochganda nima kiyish kerakligi to'g'risida bosh qotirmaslikni xush ^radilan Yoshlar an'anaviy tarzda o'ziga qulay bo'lган kiyimlarni tanlaydilar. Ular uchun keng shimplar yoki jinsi, keng ^ylaklarni kiyish yetarli xolos. Albatta, o'smirlar orasida o'zini doimiy ravishda kuzatib yuruvchilar ham topiladi. Bunday o'smirlar uchun dizaynerlar bir oz tanaga yopishib turuvchi modellarni tavsiya qilishadi. O'smir qizlarda kiyimlar bo'yicha tanlov juda ham ko'p. Bular: turli bichimdagi to'ylak va yubkalar, shimplar, jinsi, shorti va boshqalar. Yoshlarbop liboslar boshqa yoshdagagi kiyimlarga nisbatan, bir-birini kombinatsiyalashi mumkinligi bilan ham ajralib turadi. Odatda, bunday kombinatsiyalash yaxshi natija beradi [1].

O'smirlar uchun tanlangan zamonaviy liboslar chiroyli va yangi dizayndan tashqari yana bir qator zarur va asosiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim. O'smirlar kiyimlari nafaqat, zamonaviy, balki, sifatli, chidamli, tana uchun zararsiz ham bo'lishi darkor. ^'pgina mahsulot ishlab chiqaruvchilar ajoyib dizayn yaratadilar, ammo mahsulot sifatiga kam

e'tibor beradilar, odatda kiyimlar uzoqqa chidamli bo'lmay, tez eskiradi, rangi chiqib, xiralashib qoladi. Ishlab chiqaruvchilar bunday kiyimlarni, odatda, sarf-harajatini o'ylab yaratadilar. Agar o'smirlar kiyimlarini mavsumiy kamaytirilgan narxda sotuvga qo'yilgan bo'lsa, birinchi navbatda uning sifatiga qarash lozimdir. Odatda, o'smirlar uchun kiyimlarni qimmatga ham olish noto'g'ri, sababi o'smir bolalar tez o'sib boradilar va ular garderobini kamida bir necha bor almashtirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, o'smir bolalar kiyimlariga nisbatan mavsumiy narxining pasaytirish hollarida sifatli bo'lган mahsulotlarni ham topib, xarid qilish mumkin. Ular orasida urfdan qolgan yoki mavsumdan o'tgan kiyimlar ham bo'lishi mumkin. Bunday hollarda qilingan xarid ota-onalarga oilaviy byudjetiga putur yetkazmaydi. Shuningdek, kostyumning asosiy jihatlaridan biri bo'lган poyafzal ham asosiy rol o'ynaydi. Bunday hollarda bir o'lchan katta bo'lган poyafzalni xarid qilish mumkin, ammo o'ta katta oyoq kiyim bolaning yurishiga noqulayliklar tug'diradi. Tabiiy charmdan tayyorlangan poyafzallar o'smir bolalar uchun qulay va zararsiz hisoblanadi.

O'smir bolalar kiyimlari kattalar ko'ylaklari, pidjak va shimplaridan butunlay farq qiladi. Bular nafaqat, moda yoki uslubga tegishlidir, balki uni tayyorlashda ishlataladigan materialga ham taaluqlidir. Yoshlarbop kiyim mustahkam, chidamli bo'lishi bilan birga zamonaviy urfga xos bo'lган va chiroyli ham bo'lish i lozim. Shu bilan birga, o'smirlar kiyimlari narx jihatidan ham mos kelishi kerak.

Ma'lumki, yoshlik - bu orzu va umidlar, yorqin va unutilmas daqiqalar davri hisoblanadi. Har bir o'smir biror idealga taqlid qilgan holda, hech kimga o'xshamagan uslubda kiyinishni istaydi. Aksariyat hollarda, o'smirlar garderobi hoh u o'g'il bola yoki qiz bola bo'lsin onalar maslahatiga tayanib tanlanadi.

O'smir yoshdag'i bolalar ulg'aygani sari kiyim tanlashni o'z didlariga moslashtirib, aynan o'zlari tanlay boshlaydilar. Bunday hollarda, onaga ma'qul bo'lган kiyim, bolada e'tirozni kelib chiqishiga olib keladi. Aynan shuning uchun ham, o'smir bolalar uchun kiyim xarid qilinayotganda ular bilan birgalikda tanlash lozim, aks holda bunday holatda pulni havoga sovurish hisoblanadi. O'smir yoshdag'i bolalar ular uchun qulay, foydali bo'lган kiyimlarni avvaldan bilishadi. Ammo o'smir bolalar uchun kiyimlar qanday sifatlarga ega bo'lishiga ham ahamiyat berish lozimdir. Albatta, o'smir liboslari urfga mos, chiroyli va zamonaviy ko'rinishda bo'lishi talab etiladi. Yorqin ranglar, turli xil rasmlar va dekorativ bezaklar, o'zgacha model va bichim-bularning barchasi o'smirlar uchun muhimdir. Bugungi kunda turli xil do'konlar o'smirlar uchun zamonaviy kiyimlarni taqdim etib kelmoqdalar. Bunday kiyimlar ulgurji va chakana sotuv asosida ham olib borilmoqda. Qoida bo'yicha, ular tomonidan taqdim qilinayotgan assortiment katta bo'lib o'smirlar o'zlari uchun aynan hohish-istiklari bo'yicha kiyimlarni turli xil fason va rangi bo'yicha tanlashlari mumkindir. Ota-onalar uchun esa o'smir farzandlariga kiyim tanlash bosh og'riqning o'zginasidir. Ayrim hollarda, o'smirlar tomonidan tanlangan kiyim ota-onalarni shok holatiga ham keltiradi. O'smir yoshdag'i bolalar uchun zamonaviy kiyim ularning ichk i hissiyotlarini ifodalaydi. O'smir bolalar faqat keyingina qulaylik va funksionallik to'g'risida fikrashi mumkin. Bunday holatda, ota-onaliga kiyim tanlashi yoki o'smir bolasining o'ziga imkon berishi

kerakmi? Bu ikki holatda ham meyor tanlanishi kerakdir, ya'ni ota-onu o'z fikrini butunlay farzandiga o'tkazmasligi, ammo bir vaqtning o'zida to'g'ri yo'naltira olishi ham lozimdir. O'smirlar kiyimlari qulay va havoga mos tarzda tanlanishi lozim [2].

O'smirlar garderobidagi kiyimlarni ishlab chiqishda albatta, O'zbekiston hududining iqlimi jihatlarini o'rganish muhim. Buning uchun dizaynerlar har bir mavsumga xos bo'lgan kiyimlar turini ishlab chiqishi, odam tanasi nafas oladigan matolarni ishlab chiqarish va ular asosida yangi dizayn loyihalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday holatlarda kiyimlarni transformatsiya qilish yo'li bilan o'smirlar uchun maxsus liboslar gaderobini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. O'smirlar uchun qulay, zamonaviy va bejirim liboslarni yaratishda dizaynerlar bir necha muammolarni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Jumladan, yaratilayotgan kiyim raqobatbardosh, sifatli va iste'molchi talabiga mos bo'lishi lozim. Albatta, o'smir bolalar uchun xam libos yaratishda tabiiy matolar turiga murojaat qilinadi. Bular sirasiga, shoyi, ip gazlama va jinsi matolari kiradi. Bunday matolar nafaqat sidirg'a, balki yo'l-yo'l, katak-katak, gulli naqshli matolar ko'proq tavsiya etiladi. Shuningdek, matolar rangi o'smir yoshiga mos bo'lishi lozim [7].

Milliy kiyimlar millatimizning etnik madaniyatini ko'tarish jarayonlarini o'rganish vositasidir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda u o'zbek modasining zamonaviy liboslarini loyihalash jarayonida g'oya va manba sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga bevosita ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, mamlakatimiz modasida "kamtarona moda" ning sinteziga asoslangan dizayn mexanizmlarini amalga oshirish uchun muhim metodologik manba sifatida muhim rol o'ynaydi [6].

XULOSA

Mustaqillik yillarda ishlab chiqarish sohasida bimuncha o'zgarishlar ro'y berdi, - "Dizaynyerlar birinchi marta o'zlarining rivojlanishi uchun davlatdan emas, balki xususiy tuzilmalardan buyurtmalar olishni boshladilar. Bundan tashqari, yangi tashkil etilgan tijorat tuzilmalarining o'zi ko'plab logotiplar, savdo markalari, vizitkalar, kalendar sovg'alari, broshyuralar va boshqa reklama matyeriallariga muhtoj edi" [3].

Yuqorida keltirilgan sifatlarlarni inobatga olgan xolda milliy kiyinish madaniyatiga mos bo'lgan libos namunalarini ishlab chiqish va ularni tavsiya etish dizaynerlarning bosh maqsadidir. O'zbek qizlari yoshligidanoq ibo-hayoga, nafosatga orgatilib boriladi. Bu jihatlar ularning nafaqat umumiy madaniyatida, balki kiyinishida xam bo'lmos'h'i lozim. Shunday ekan, zamonaviy dizaynerlarimiz taqdim qilayotgan kiyimlarni tog'ridan-to'g'ri qabul qilmasdan, meyyor kategoriylariga amal qilish har bir o'zbek qiziga xos bolishi o'rinnlidir. Bugungi kunda o'zbek dizaynerlari mana shunday ko'rsatkichlarni inobatga olib, milliy matolarimiz, bichimlarimizni unutmagan xolda yangi libos to'plamlarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lishmoqda.

REFERENCES:

1. Xasanbayeva G.K. Spetsifika dizayna molodojnoy odejdi: -Toshkent: 2008 yil. 40-43 betlar.
2. F.Abdullayeva. Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi: - Toshkent:2006.
3. F.Z.Atahanova, A.S.Saidiganieva, S.A.Karimova, G.E.Umarov, N.A.Abdukadirova. "Artistic design education in Uzbekistan: origins, features, problems": Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 884-889. 884 Info@philosophicalreadings.org 10.5281/zenodo.5184686
4. Nargiza A.U. "Effective Options Of The Fashion Recycling In The Concept Of Environmental Sustainability Development". International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 5 Issue 4, April -2021, Pages: 71-73. www.ijeais.org/ijamsr
5. Umarova G.E. "Color Image Creations -As A Source Of Creativity". International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR) ISSN: 26439670 Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 191-193
6. F. S. Abdullayeva, S.D. Nishanova, A.Z. Rashidov, M.A. Zaripova, R.E. Dehkanova. "Factors influencing the formation of clothes as a component of ethnic culture in the territory between two rivers in central Asia". Ilkogretim Online -Elementary Education Online, 2020; 19 (4): pp. 832-836 http://ilkogretim-online.org
7. <https://zamon.uz/detail/dunyoning-eng-baxtli-mamlakatlari-reytingida-ozbekiston-mdh-orasida-yetakchi-orinni-egalladi-ozbekiston>